



## DINNING EKOLOGIYAGA TA'SIRI

*Ochilov Ulug'bek*

*Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Samarqand filiali*

*KI24-03 guruh talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Samatov. X.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dinning ekologik muammolarga munosabati, diniy e'tiqodlar va qadriyatlarning tabiatni asrashdagi roli o'r ganiladi. Jumladan, islam dini doirasida insonning tabiat oldidagi mas'uliyati, ekologik adolat, resurslardan oqilona foydalanish va hayvonot hamda o'simlik olamiga bo'lgan munosabat diniy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ekologik inqirozga qarshi kurashda diniy tashkilotlar va ulamolarning faol ishtiroki ham yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** din, ekologiya, islam, tabiatni muhofaza qilish, mas'uliyat, Qur'on, hadis.

Hozirgi kunda ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir. Atmosfera ifloslanishi, suv tanqisligi, global isish, o'rmonlarning kesilishi kabi ekologik muammolar barcha jamiyatlar uchun tahdid solmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, insoniyatning turli qadriyatlari, jumladan, diniy e'tiqodlar ekologiyani saqlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada din, xususan, islam dinining ekologiyaga bo'lgan ta'siri tahlil qilinadi.

Din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongini, yashashdan maqsadi hamda taqdirini bevosita qurshab olgan, atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir «to'g'ri», «haqiqat» va «odil» hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rganadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta'limotdir.

Dunyoviy va ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, din – bu kishilik jamiyat tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida shakllangan ijtimoiy-tarixiy hodisa hisoblanadi. U insoniyat tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy hayotining ajralmas bir



qismi bo‘lib, odamzodning olam va mavjudotga bo‘lgan munosabati, ularni anglash, tushunish va izohlashga qaratilgan alohida idrok tizimidir.

Din o‘z mohiyatiga ko‘ra, insonning ruhiy-ma’naviy ehtiyojlariga javob beruvchi, hayotni ma’nolantiruvchi ishonch, e’tiqod va tuyg‘ular majmuasini ifodalaydi. U muayyan aqidalar, diniy ta’limotlar, rasm-rusum va ibodatlar, shuningdek, diniy tashkilotlarning faoliyati orqali jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Tarixiy jihatdan olganda, diniy tasavvurlar odamzod jamiyatining ilk bosqichlaridan boshlab shakllanib, insoniyat taraqqiyoti davomida turli shakllarda rivojlanib kelgan.

Jumladan, din inson hayotida ko‘plab vazifalarni – ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy, ruhiy va kompensator (ovutuvchi, ma’naviy bo‘shliqni to‘ldiruvchi) vazifalarni bajaradi. Inson o‘z hayotida duch kelgan murakkab holatlar, muammolar, umidsizlik va maqsadsizlik paytlarida ko‘pincha din orqali ma’naviy taskin topadi, ichki tinchlik va sabr topishga intiladi.

Din – bu shunchaki e’tiqod tizimi emas, balki insonning hayotga bo‘lgan yondashuvini shakllantiruvchi, uni yo‘naltiruvchi va ma’naviy jihatdan boyituvchi kuchdir. Inson doimiy ehtiyojlar ichida yashaydi: u ba’zida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erisholmaydi, hayotiy sinovlarga duch keladi, ichki iztiroblarni boshdan kechiradi. Ana shunday pallalarda u bir tayanch, ruhiy kuch, ichki barqarorlikni izlaydi va ko‘pincha uni din orqali topadi.

Darhaqiqat, dunyoda dini, ishonchi, e’tiqodi yo‘q xalq, elat yoki millat yo‘qdir. Chunki har qanday jamiyatda, hatto zamonaviy sekulyar davrlarda ham, odamlar hayotining biron-bir qirrasida diniy qadriyatlar, e’tiqod shakllari mavjud bo‘ladi. Din – bu insoniyat ongingin ajralmas bir qismi bo‘lib, u jamiyatda axloqiy me’yorlarni shakllantiradi, ijtimoiy birdamlikni ta’minlaydi va ma’naviy rivojlanishga turtki beradi.<sup>1</sup>

Islom dini atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga katta e’tibor beradi. Bu boradagi ko‘rsatmalarni Qur’oni karim oyatlarini o‘rganish orqali chuqur anglab olish mumkin. Islom – bu inson, borliq va Yaratgan o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlovchi,

<sup>1</sup> Al-Qaradawi, Yusuf. “Islam and the Environmental Crisis”, The Islamic Foundation, 2001.



chuqur ma’naviy-axloqiy mezonlarni o‘zida mujassam etgan yuksak din sanaladi. Shu sababli islomda inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar bejizga emas, balki Yaratganning qudrati, hikmati va rahmatini anglash, tafakkur qilish, hamda Unga ibodat etishga chorlovchi jihat sifatida ko‘riladi. Tabiatdagi har bir unsur – daraxt, suv, hayvon va boshqa mavjudotlar – inson uchun nafaqat ne’mat, balki uni asrash mas’uliyatini ham yuklaydi.

Qur’oni karimda inson tabiatning bir bo‘lagi ekani, u tabiatdan foydalanishda ehtiyyotkorlik bilan, adolat bilan ish yuritishi kerakligi qayta-qayta ta’kidlanadi. “An’om” surasining 38-oyatida harakat qiluvchi va uchuvchi barcha jonivorlar ham insonga o‘xshash ummatlar ekani aytiladi. Bu esa ularning ham Yaratgan oldida o‘ziga xos o‘rni borligini bildiradi. “Baqara” surasining 205-oyatida esa yer yuzida buzg‘unchilik qilish, ya’ni o‘simpliklar va hayvonot olamini nobud etish keskin qoralangan. Bu oyatlar orqali tabiatga nisbatan e’tiborsizlik yoki zarar yetkazish – ilohiy buyrug‘ga qarshi chiqishdek baholanadi.

Shuningdek, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ko‘plab hadislarida insonning yer yuzida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni saqlashdagi mas’uliyati ta’kidlanadi. Har bir kishi Yaratganning oldida qilgan harakati uchun javob beradi – bu javobgarlikka tabiatga munosabat ham kiradi. Islomda tabiatni muhofaza qilish faqatgina ekologik zarurat emas, balki ma’naviy burch, diniy vazifa sifatida ko‘riladi.

Bizning xalqimizda bu tushunchalar qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Jumladan, “hashar” deb ataluvchi an’ana – tabiatni, atrof-muhitni obod qilish, mahallalarni tozalash, jamoaviy ishlar orqali birdamlikni mustahkamlash kabi ezgu g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan. Hashar orqali nafaqat muhit obod bo‘ladi, balki insonlar o‘rtasida mehr-oqibat, xayr-sahovat, hamjihatlik, ijtimoiy birdamlik kabi yuksak fazilatlar rivoj topadi.

O‘zbekiston xalqining tarixiy-ma’naviy rivojlanishida islom dini o‘ziga xos o‘rin egallab kelgan bo‘lib, uning qadriyatları va e’tiqodi asosida atrof-muhitga bo‘lgan munosabatning an’anaviy tizimi shakllangan. Ayniqsa, qadimiy quduqlar, buloqlar, noyob daraxt va o‘simpliklarni asrab-avaylash bilan bog‘liq odatlar xalqning tabiat ne’matlariga bo‘lgan hurmat va minnatdorlik asosidagi munosabatini namoyon



etgan. Ushbu odalar nafaqat ekologik madaniyat shakllanishiga, balki ongi va mas'uliyati ekologik xulq-atvor rivojlanishiga ham asos bo'lgan.

Islom dini doirasida shakllangan e'tiqodlar tabiatga, ayniqsa hayvonot va nabotot olamiga mehr-shafqat bilan munosabatda bo'lishni targ'ib qiladi. Bu diniy tamoyillar asrlar davomida xalq hayot tarzining ajralmas qismi bo'lib, o'zbek xalqining ekologik madaniyatini belgilovchi muhim omillardan biriga aylangan. Alloh tomonidan yaratilgan har bir jonli mavjudot – hayvonlar, o'simliklar va hatto jonsiz tabiat hodisalari (yer, suv, havo) ham muqaddas sanalib, ularni asrash islomiy axloqning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Qur'oni Karimda bu masalaga alohida urg'u berilgan. Jumladan, "Abasa" surasida insonning o'z rizqiga diqqat bilan qarashi, ya'ni rizq manbai bo'lgan yer va undan yetishtiriladigan hosillar haqida tafakkur qilishi ta'kidlanadi. Bu oyatlar inson va tabiat o'rta sidagi uzviy bog'liqlikni anglatadi. Shuningdek, hayvonot va nabotot olamiga nisbatan e'tiborli bo'lish, ularni noo'rin nobud qilmaslik Qur'oni Karimda bir necha oyatlarda ochiq-oydin ta'kidlangan. Masalan, "yerdagi har bir jonivor va ikki qanoti bilan uchuvchi parranda ham sizlar kabi ummatlardir" degan oyat hayvonlarning ham jamiyatda muayyan o'rni borligini anglatadi.

Islom tafakkurida insonning tabiat oldidagi mas'uliyati ikki tomonlama: bir tomondan u tabiatdan foydalanish huquqiga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan u tabiat oldida axloqiy va ma'naviy javobgarlikka egadir. Bunday yondashuv, o'z navbatida, insonlarni atrof-muhitga nisbatan mas'uliyati va ongi munosabatda bo'lishga undaydi.

Ya'ni, o'zbek xalqining diniy e'tiqodi asosida shakllangan tabiatga bo'lgan mehrli va ehtiyyotkor munosabat bugungi ekologik muammolar fonida ham dolzarigicha qolmoqda. Islomiy qadriyatlar zamonaviy ekologik tarbiyada asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qilishi, yosh avlodda tabiatga nisbatan mas'uliyat, mehr-shafqat va e'tiborni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Shu asosda aytish mumkinki, ijtimoiy barqarorlik, inson salomatligi va farovonligiga erishishda nafaqat islom, balki yahudiylilik va xristianlik dirlari ham inson manfaatlariga yo'naltirilgan muhim yo'l-yo'riqlarni belgilagan. Bu dinlar asosiy



qadriyat sifatida inson hayotini, aqlini, e'tiqodini, naslini va mol-mulkini asrashni ko'zlaydi. Bu qadriyatlar barqaror jamiyat qurishda muhim omillar bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, islom dini ta'limotida suv Alloh tomonidan insoniyatga ato etilgan bebahो ne'matlardan biri sifatida qaraladi. Bu ne'mat nafaqat hayot manbai, balki ibodat, tozalik va yashash tarzining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan. Shu sababli, suvdan foydalanishda isrof va ifloslantirish harom sanaladi. Bu fikr islom fiqhida chuqur tahlil qilingan bo'lib, hatto dengiz suvi kabi cheksiz manbalar mavjud bo'lganda ham uni behuda sarflashdan tiyilish zarurligi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, hadislarda hayvonot va o'simlik dunyosini asrash, ularning zarur turlarini ko'paytirish va yashash muhitining sofligini saqlash bo'yicha aniq ko'rsatmalar mavjud. Islomda ekologik muvozanatni saqlash, tirik mavjudotlarga zarar yetkazmaslik, toza havo, suv va atrof-muhitni ifloslantirmaslikka da'vat etuvchi fikrlar keng o'rin olgan. Bu esa islomiy dunyoqarashda insonning tabiat oldidagi mas'uliyatini yuksak darajada tasdiqlaydi.

Xususan, insonning jismoniy pokligi, kiyim-kechak va yashash muhiti tozaligi islomiy ibodatlar, xususan namoz, ro'za va boshqa amallarning ajralmas shartlaridan biri hisoblanadi. Bu orqali islom nafaqat ma'naviy poklik, balki ekologik va jismoniy gigiyenaga ham katta e'tibor qaratganini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, Islom dini ta'limotida tabiat — Allohnинг ne'mati, uni asrash esa har bir muslimnonning burchidir. Qur'oni Karimda ko'plab oyatlarda osmon, yer, tog'lar, daryolar, hayvonot va o'simliklar zikr qilinadi. "Yer yuzida buzg'unchilik qilmanglar" (Baqarah surasi, 60-oyat) degan oyat insonning tabiatga ehtiyyotkor munosabatda bo'lishi kerakligini bildiradi.

Hadislarda ham Rasululloh (s.a.v.) hayvonlarga rahm-shafqatli bo'lish, daraxt ekish va suvni isrof qilmaslik haqida ko'plab ko'rsatmalar bergenlar. Bir hadisda shunday deyiladi: "Agar bir muslimon bir daraxt ekib, undan qush, odam yoki hayvon yesa, bu unga sadaqa bo'ladi" (Imom Buxoriy rivoyati). Bu esa ekologik amaliyotning diniy savobli ishga aylanishini ko'rsatadi.



Bugungi kunda ko‘plab diniy tashkilotlar ekologik muammolarni hal qilishga faol kirishmoqda. Masjidlar va diniy ulamolar orqali aholiga tabiatni asrash, chiqindilarni kamaytirish, suv va energiya tejamkorligi haqida targ‘ibot olib borilmoqda. Diniy maruzalarda ekologiya masalalari yoritilishi, jamoalarda ekologik ongni shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Shuni ham aytish joizki, aslida diniy va axloqiy tushunchalar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson hayotining ma’nosini va mazmunini anglashda muhim o‘rin tutadi. Har ikkisi ham – diniylik ham axloqiylik – inson va jamiyat hayotining ma’naviy asoslarini belgilovchi yondashuvlar sifatida qaraladi. Ularning asosiy obyekti – inson va uning bu dunyodagi hayotidir. Din ham, axloq ham odamzotga qanday yashash, qanday muomala va xulq-atvorni tanlash zarurligini tushuntiradi, hayotni anglashga, uni mazmunli kechirishga yo‘naltiradi.

Islom mutafakkiri Abu Hamid al-G‘azzoliy o‘z asarlarida dinning inson hayotiga ta’siri, dindagi ma’naviy-axloqiy tarbiya vositalarining kuchi haqida chuqur fikr yuritgan. U dunyodagi do‘zax azoblari haqida yozar ekan, bu orqali kishilarga bu dunyoda qanday yashash zarurligini uqtiradi va ularning qalbini his-tuyg‘u orqali tarbiyalashga harakat qiladi. Bu yondashuv dinning faqatgina ilohiy hukmlarni emas, balki axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilishga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Dinlarda ilgari surilgan yuksak umuminsoniy g‘oyalar – inson sha’ni,adolat, halollik, bag‘rikenglik, sabr-toqat, tabiatga nisbatan mas’uliyat – aslida ijtimoiy hayotda muhim axloqiy muammolarni hal etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Dinni hayotda amaliy qo‘llash orqali inson o‘zini pok tutishga, o‘tkinchi dunyo lazzatlariga mukkasidan ketmaslikka, boshqalarga xiyonat qilmaslikka va tabiatga zarar yetkazmaslikka o‘rgatiladi. Dinning bunday ta’siri uni shunchaki e’tiqod tizimi emas, balki ma’naviy takomillashuvning kuchli mexanizmi sifatida ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, kishilik jamiyatining ma’naviy yuksalish darajasi bevosita diniy dunyoqarash bilan chambarchas bog‘liq. Chunki diniy dunyoqarash inson tafakkurini tartibga soladi, dunyo va hayot haqidagi tasavvurlarni yaxlit bir tizimga olib keladi, e’tiqodga asoslangan barqaror qarashlar tizimini shakllantiradi. Bu esa



jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlari uchun zarur bo‘lgan ma’naviy tayanchni, uzluksiz takomillashuvni ta’minlaydi.

Din ko‘plab hollarda inson tafakkurini emas, balki avtoritetga, ya’ni mutlaq ustuvor shaxs yoki g‘oyaga so‘zsiz ishonish va unga itoat qilishni o‘rgatishga asoslanadi. Bu holat ayniqsa, diniy ta’lim jarayonining ilk bosqichlarida sezilarli bo‘lib, erkin axloqiy tafakkurning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlar cheklab qo‘yiladi. Bunday ta’limga ega bo‘lgan shaxslar, odatda, o‘z e’tiqodiga yoki axloqiy qarashlariga zid bo‘lgan alternativ fikr va qarashlarga toqat qilolmaydi, bunday fikrlardan qochishga yoki ularni rad etishga intiladi. Bu esa ijodkorlik va mustaqil fikrlash salohiyatining pasayishiga olib keladi.

Shu sababdan diniy ta’lim, ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida, yuqori sinf o‘quvchilari uchun tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday darslar targ‘ibot va bir yoqlama qarashlar asosida emas, balki ilmiy-nazariy bilim berishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Eng asosiysi, o‘quvchiga xulosani o‘zi mustaqil ravishda chiqarish imkoniyati berilishi, diniy ta’lim tanqidiy yondashuv, xolislik va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslanishi zarur.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, din yetarli darajada dunyoviy ta’lim olgan jamiyatda ijobiy ro‘l o‘ynaydi, ya’ni insoniyatning axloqiy-ruhiy jihatdan kamol topishiga xizmat qiladi. Ammo diniy ta’lim jiddiy ilmiy tayyorgarlik va tafakkurga asoslanmagan jamiyatlarda esa bu holat mutlaqo teskari natijalar – fikrga toqat qilmaslik, diniy radikalizm yoki taqlidga asoslangan e’tiqodga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda yoshlarning dinga bo‘lgan qiziqishi va ijobiy munosabatini e’tiborga olgan holda, ta’lim-tarbiyada diniy omilning o‘ziga xos o‘rni borligini alohida ta’kidlash lozim. Din – bu faqat marosimlar tizimi emas, balki insoniy komillikka yetaklovchi ma’naviy-ma’rifiy manba hamdir. Mustaqil jamiyatning poydevori – qalbi pok, iymoni butun, solih fikrli yoshlardir. Yoshlar har kuni jamiyatda ezgulikni targ‘ib qiladigan, halollik, bag‘rikenglik va saxovat kabi qadriyatlarni hayotga tadbiq etadigan bo‘lsalar, bu nafaqat o‘zlariga, balki jamiyatning barcha qatlamlariga ijobiy ta’sir qiladi.



Shunday ekan, yosh avlodni dinga nisbatan ma'rifatli, xolis va tanqidiy yondashishga o'rgatish, ularni nafaqat e'tiqodli, balki tafakkurli, ongli va mas'uliyatli fuqarolar etib tarbiyalash – zamonaviy dunyoviy ma'rifatning eng muhim vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, din, ayniqsa islom dini, insonni tabiatga hurmat, rahm-shafqat va mas'uliyat asosida munosabatda bo'lishga undaydi. Diniy qadriyatlar ekologiyani asrashga xizmat qiladigan muhim omil bo'la oladi. Shu bois ekologik muammolarni bartaraf etishda diniy e'tiqodlar va diniy tashkilotlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'oni Karim. Tarjimasi va sharhi — T. "Hilol-nashr", 2019.
2. Hadislari to'plami – Imom Buxoriy. "Sahih al-Buxoriy".
3. Nasr, S.H. "Man and Nature: The Spiritual Crisis of Modern Man". Suhail Academy, 1997.
4. Al-Qaradawi, Yusuf. "Islam and the Environmental Crisis", The Islamic Foundation, 2001.
5. Xolbo'tayev I. "Ekologik madaniyat asoslari" – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2020.